



TEMURIYLAR DAVRI ME'MORCHILIK DURDONASI: SAROYMULKXONIM MAQBARASI ME'ROSINING TAHLILI

*Samarqand davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix
yo'nalishi talabasi **Raximova Dिल्фуза Qodirjon qizi***

draximova919@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davrining yirik jamoat va davlat arbobi, Amir Temur bosh xotini — Saroymulkxonim (Bibi Xonim) hayoti hamda uning nomi bilan bog'liq me'moriy majmualar, xususan, Saroymulkxonim maqbarasi atroflicha tahlil qilinadi. Ishda maqbaraning qurilish tarixi, me'moriy tuzilishi, bezak uslublari va uning Samarqand shahrining shaharsozlik tizimidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, davr yozma manbalari va arxeologik ma'lumotlar asosida ushbu me'moriy obidaning bugungi kundagi saqlanganlik holati hamda madaniy meros sifatidagi qimmatini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Saroymulkxonim, Bibi Xonim, Amir Temur, Temuriylar davri me'morchiligi, Samarqand obidalari, maqbara, islom me'morchiligi, koshinsozlik, madaniy meros.

Kirish

Samarqandning ko'hna qismida, Amir Temur jome masjidining kunchiqar tomonida, bundan oltiasrlar ilgari barpo qilingan mujazzgina bir me'moriy obida qad rostlab turibdi. Bu obidaning gumbazi ostida Amir Temurning suyuqli

xotini, u bilan ko'plab issiq-sovuqlarni birga baham ko'rgan, zukko, tadbirkor, oqila katta xonim – Saroymulkxonim – Bibixonim abadiy uyquda yotibdi.

Bibixonim maqbarasi haqidagi ilk tarixiy ma'lumotlarni biz 1404-yili Samarqandga tashrif buyurgan, Kastiliya qiroli Genrix III ning elchisi Klavixoning kundaliklaridan o'qishimiz mumkin. Ispan elchisi bu yodgorlik haqida:

„Dushanba, yigirma to'qqizinchi sentyabr kuni janob (ya'ni Amir Temur) Samarqand shahriga jo'nadi va shaharga kirish yo'lining ustida joylashgan bir uyga



to'xtadi. Bu uy janob xotin Bibi-xonimning onasi uchun qurdirilgan, lining onasi shu uyning ichidagi sag'anaga dafn etilgan. Uy juda hashamatli bo'lib, ichi yoqut bezatilgan, har kuni ish bor – moyida“ deb yozgan edi. Bu yerda gap Saroymulixonim – Bibixonim madrasasi va unga yo'ldosh qilib Amir Temur tomonidan qaynona, ya'ni Bibixonimning onasi, amir Qozonxonning xotini uchun qurilgan maqbara haqida borayotgani yirik tarixchilar tomonidan tan olingan.¹

Asosiy qism

1941-yili arxeolog Yahyo G'ulomov rahbarligidagi olimlar maqbarada qazish ishlarini olib borishib, shu paytgacha nomalum bo'lgan ko'pgina narsalarni aniqladilar. Shu paytgacha sag'ana o'rtasidagi bo'sh yerning tagida yashirin qabrlar mavjud, degan taxminlar bor edi. Bu yer qazib ko'rilganda, bu yerda hech qanday yashirin qabr yo'qligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, ekspeditsiya a'zolari maqbara XI-XII asrlarga oid madaniy qatlam ustida bunyod qilinganligini aniqladilar. Aynam shu yilning iyun oyida Yahyo G'ulomov boshchiligidagi arxeologlar maqbaradagi qablarni ham ochib o'rgandilar.

1 Shuhrat Qulmatov, Amiriddin Berdimurodov. Samarqand - 2017, "Samarqand yodgorliklari".

Yahyo G'ulomovga qadar maqbara 3 marta ochib o'rganilgan. Bularning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak; 1871-yili Samarqand Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingandan so'ngqilingan. Ammo tobutlar qanday maqsadda ochilganligini hesh kim bilmagan. Tashtobutlar ikkinchi marta 1926-yili bir guruh o'g'rilar tomonidan ochilgan. O'g'rilar tobutlarni titib marhumlarning taqinchoqlari va boshqa bezaklarini o'g'irlaganlar. Shu tufayli tobutlar 1941-yil uchinchi marta ochilganda uning ichidagi suyaklar ag'dar-to'ntar bo'lib yotardi. Bibixonim maqbarasidagi tashtobutlarning qopqoqlarida hech qanday yozuvlar bo'lmaganligi uchun bu yerga dafn etilgan marhumlarning shaxsiyatini aniqlash ancha mushkul bo'lgan.

Ko'plab qidiruv va izlanishlar natijasida sharqiy tokchada joylashgan, uchinchi bo'lib ochilgan maqbaradagi eng yirik tashtobutga dafn etilgan jasadning



shaxsiyati haqida ancha bahslar bo'ldi. Shuning uchun ko'plab tarixiy manbalar o'rganildi, xar xil taxminlar farazlar tahlil qilindi, antropologlar jasadning yoshini aniqladilar. Skuptor Gerasimov marhumning hujjatli portretini yaratdi.

Barcha dalillar, taxminlar va ilmiy xulosalar jamlanib muhokama etilgach, tadqiqotchilar bu suyakli Amir Temurning suyukli xotini, katta xonim – Bibixonimniki, degan qarorga keldilar.²

Bibixonimning aql-farosati, mehribonchiligini Amir Temur yuksak baholar edi, shu sababli, sohibqiron oqila malikaga temuriy shahzodalarning tarbiyasini ishonib topshirgan edi. Bibixonimga tabiat ona bo'lish baxtini bermagan edi, u bor mehr-muhabbatini Mirzo Ulug'bek, Muhammad Sulton, Halil Sulton kabi suyukli nabiralariga baxsh etdi. Bibixonim o'z sarmoyasidan Samarqandda ulug'vor madrasa bunyod qildi, olimlar, shoirlar va me'morlarga g'amxo'rlik qildi.³

3 Ibodat Sattorova. Samarqand - 2021, "Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar,

ziyoratgohlar tarixi".

2 Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi — SAMARQANDNING TARIXIY OBIDALARI VA

MUZYeYLARI BO'YICHA EKSKURSIYA MATNLARI, 2010

Bibixonimning vafoti haqida ham ko'plab taxminlar bor. Shulardan birini arab tarixchisi Ibn Arabshoh keltiradi; uning aytishicha Bibixonimni Halil Sultonning xotini Shodmulk yashirin ravishda o'ldirgan.

Mustaqillik yillarida maqbarada ko'plab ta'mirlash ishlari olib borildi va davom ettirilmoqda.⁴

Xulosa:

Mustaqillik yillarida Saroymulkxonim maqbarasida keng ko'lamli ta'mirlash va qayta tiklash ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda ushbu obida nafaqat Temuriylar davri me'morchiligining noyob durdonasi, balki xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosining ajralmas qismi sifatida muhofaza qilinmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi — SAMARQANDNING TARIXIY OBIDALARI VA MUZYeYLARI BO'YICHA EKSKURSIYa MATNLARI, 2010
3. Ibodat Sattorova. Samarqand - 2021, "Samarqand shahri va viloyatidagi muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar tarixi".
4. Shuhrat Qulmatov, Amiriddin Berdimurodov. Samarqand - 2017, "Samarqand yodgorliklari".
- 4 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil